

TARVUZ URUG'IDAN O'SIMLIK MOYI OLISHNING AHAMIYATI

Ali-Axunov A.A.¹

Samarkand Davlat Tibbiyot Universiteti

KEYWORDS

mikroelement, oqsil, vitamin, fruktoza, tarvuz, o'simlik moyi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada tarvuz urug'idan olinadigan o'simlik moyining kimyoviy tarkibi, biologik faol komponentlari, shuningdek, uni presslash va ekstraksiya usullari orqali ishlab chiqarishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida tarvuz moyining inson organizmi uchun foydali xususiyatlari, mikro va makroelementlar miqdori, hamda uning funksional ovqatlanishdagi o'rni ko'rib chiqildi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15306304**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH

O'zbekiston qadim zamonlardan beri poliz ekinlarini, xususan tarvuzni yetishtirishda boy tajribaga ega. Tarvuz nafaqat shirin ta'mi, balki o'zining shifobaxsh xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Tarvuz etida C, B1, B2, A vitaminlari, foliy kislotasi, kaliy, temir, magniy va boshqa moddalar mavjud. Ammo bu o'simlikning yana bir muhim jihat shundaki, uning urug'i ham qimmatli xom ash O'zbekiston qadim zamonlardan beri poliz ekinlarini, xususan tarvuzni yetishtirishda boy agronomik tajribaga ega mamlakat hisoblanadi. Tarvuz — nafaqat yozgi faslning eng sevimli mevalaridan biri, balki o'zining ko'p qirrali foydali xususiyatlari bilan ham alohida o'rinnegi egallaydi. Yengil hazm bo'ladigan, suvgaga boy, shirin ta'mli bu poliz mahsuloti tarkibida inson salomatligi uchun zarur bo'lgan ko'plab biologik faol moddalar mavjud. Xususan, tarvuz etida glyukoza, fruktoza, saxaroza ko'rinishida to'planadigan 12 foizgacha bo'lgan tabiiy qandlar, C, B1, B2, A vitaminlari, foliy kislotasi, pektin moddalari, karotinoidlar, kaliy, temir, magniy, kalsiy tuzlari va turli aminokislotalar mavjud bo'lib, ular organizmdagi turli fiziologik jarayonlarni faol qo'llab-quvvatlaydi.

Tarvuz xalq tabobatida ham keng qo'llanilgan. Mashhur Sharq tabibi Muhammad A'zamxon o'zining "Buyuk ummon" asarida tarvuzning kuydiruvchi bezgakka qarshi tabiiy davo vositasi sifatida ishlatilishi haqida yozib qoldirgan. Tarvuzning diuretik xususiyati uning buyrak va

¹ Samarkand Davlat Tibbiyot Universiteti assistenti, Samarqand. O'zbekiston

peshob yo'llari faoliyatini yaxshilashi, organizmni toksinlardan tozalashiga xizmat qiladi. Tarkibidagi fruktoza tufayli tarvuz diabet kasalligidan aziyat chekayotgan bemonlar uchun ham nisbatan xavfsiz mevalardan biri hisoblanadi.

Tarvuzning oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati ham yildan-yilga ortib bormoqda. U nafaqat yangi holatda iste'mol qilinadi, balki undan konservalangan mahsulotlar, sharbatlar, murabbo, pyure, hatto asal va vino kabi mahsulotlar tayyorланади. Shunga qaramay, tarvuzning eng ko'p e'tibordan chetda qolgan, biroq nihoyatda foydali bo'lgan qismi — bu uning urug'idir. Tarvuz urug'i ko'pincha chiqindi sifatida ko'riladi, biroq u tarkibidagi yuqori miqdordagi o'simlik yog'i sababli qimmatli texnik xom ashyo bo'lib xizmat qilishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarvuz urug'i 26–32% gacha o'simlik yog'ini o'zida saqlaydi va bu ko'rsatkich uni boshqa mashhur moyli ekinlar bilan tenglashtirish imkonini beradi. Tarvuz urug'idan olingan yog' salomatlik uchun foydali bo'lgan to'yinmagan yog' kislotalari, xususan olein va linol kislotalariga boydir. Shu sababli tarvuz urug'i va undan olinadigan yog' mahsulotlarini sanoatga joriy etish, funksional oziq-ovqat ishlab chiqarish, farmatsevtika hamda kosmetologiya sohalarida keng qo'llash katta istiqbolga ega.

Tarvuz urug'inining tarkibi va ahamiyati

Tarvuz urug'i yog'ga boy bo'lib, uning yog'liligi 12–45% ni tashkil etadi (ko'pincha 26–32%). Shuningdek, urug'da 18–27% xom protein, 8–9% kraxmal, 1% shakar, 38–54% kletchatka mavjud. Urug'ning 53,4% po'chog'i va 46,6% yadro qismini tashkil etadi. Po'chog'inining yog'liligi 51% gacha yetishi mumkin.

Tarvuz urug'i yog'i mayin, yoqimli ta'mga ega bo'lib, organoleptik jihatdan salat yog'i sifatida iste'mol qilish uchun qulaydir. Yog' tarkibida to'yintirilgan yog' kislotalari (palmitin 9–11%, stearin 6–10%) va to'yinmagan yog' kislotalari (olein 14–25%, linol 45–60%) mavjud bo'lib, bu moyni funksional oziq-ovqat mahsuloti sifatida ishlatish imkonini beradi.

Yog' olish texnologiyasi

Tarvuz urug'idan yog' olish uchun ikki asosiy usul qo'llaniladi: presslash va ekstraksiya. Ammo, urug' po'chog'inining mag'izga yopishganligi, mag'iz o'lchamlarining bir xil emasligi tufayli birlamchi presslash va bevosita ekstraksiya usuli afzal hisoblanadi. Presslangan moy tillorang tusda, ekstraksiya qilingan moy esa yashilsimon rangda bo'ladi.

Rafinatsiyalanmagan yog' salat yog'i sifatida iste'mol qilinadi, rafinatsiyalangan yoki gidrogenizatsiyalangan yog' esa funksional oziqlanishda foydalanish uchun mo'ljallanadi.

Xulosa: Tarvuz urug'i — yuqori energetik va biologik qiymatga ega bo'lgan, yetaricha o'rganilmagan xom ashyo bo'lib, undan o'simlik moyi ishlab chiqarish yog'-moy sanoatining diversifikasiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning tarkibidagi foydali komponentlar, ayniqsa to'yinmagan yog' kislotalari, bu moyni nafaqat ovqatlanishda, balki farmatsevtika va kosmetologiya sohalarida ham qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ubaydullaev J. N., Vakhin A. V., Katnov V. E., Trubistina S. A., & Mukhamadiev N.K. Assessments of Chemical Composition and Properties High-Viscosity Oil Based on Elemental //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 332-339.

2. Холмуродов Т. А., Мирзаев О. О., Убайдуллаев Ж. Н. Каталитическое облагораживание тяжелой нефти в присутствии поверхностно-активных веществ //Добыча, подготовка, транспорт нефти и газа. – 2023. – С. 62-63.
3. Ubaydullaev J.N., Vakhin A.V., Muhammadiev N.K. (2024) Synthesis of sodium nanoparticles for heavy oil production. Scientific journal SamSU, 3(145/1), 34-40.
4. Ubaidullaev, J. N., Vakhin, A. V., Katnov, V. E., Trubistina, S. A., & Mukhamadiev, N. K. (2023). Assessments of Chemical Composition and Properties High-Viscosity Oil Based on Elemental. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(5), 332-339.
5. Икромова Ш. А., Худойқулов Ж. И. ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ И МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ //Research Focus. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 146-150.